



TOSHKENT DAVLAT TIBBIYOT UNIVERSITETI KO'P TARMOQLI KLINIKASI B U Y R U Q

«17» noyabr 2025yil

No 100

O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligining 2025-yil 4-noyabrdagi “Sog‘liqni saqlash sohasida “Sirli mijoz” institutini joriy etish to‘g‘risida”gi 339-sonli buyrug‘i ijrosini ta’minlash to‘g‘risida

Sog‘liqni saqlash vazirligining 2025-yil 4-noyabrdagi “Sog‘liqni saqlash sohasida “Sirli mijoz” institutini joriy etish to‘g‘risida”gi 339-sonli buyrug‘i, O‘zbekiston Respublikasining “Istemolchilarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonuning 23-moddasi va O‘zbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonuning 19-moddasiga asosan

BUYURAMAN:

1. Ko‘rsatilayotgan tibbiy xizmatlar sifatini yanada yaxshilash hamda korrupsiyaviy xavflarni barvaqt aniqlash, ularni bartaraf qilish choralari ko‘rish maqsadida, Sog‘liqni saqlash vazirligi tizimida “Sirli mijoz” instituti joriy etilganligi inobatga olinsin.

2. Sog‘liqni saqlash vazirligining 2025-yil 4-noyabrdagi “Sog‘liqni saqlash sohasida “Sirli mijoz” institutini joriy etish to‘g‘risida”gi 339-sonli buyrug‘ining 2-bandiga asosan tasdiqlangan “Davlat va tibbiy xizmatlar ko‘rsatishni tashkil etish faoliyatida “Sirli mijoz” tadbirlarini amalga oshirish tartibi to‘g‘risidagi Nizom” ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. Toshkent Davlat tibbiyot universitetining ko‘p tarmoqli klinikasi bo‘lim va bo‘limmalari shuningdek ularning xodimlari tomonidan tibbiy xizmatlarni ko‘rsatishda qonunchilik hamda ichki idoraviy hujjatlar talablariga amal qilish, xodimlarning professionalligi, tezkorligi, ularning aholi bilan muomala qilish yetika darajasini baholash maqsadida, “Sirli mijoz” tadbiri o‘tkazilishi yuzasidan barcha bo‘lim va bo‘linma rahbarlari, ishchi hodimlari quyidagilar bo‘yicha ogohlantiriladi:

- “Sirli mijoz” tadbiri natijalariga ko‘ra hodimlar tomonidan amaldagi qonunchilik va sohaga doir ichki idoraviy hujjatlarga rioya qilinmaganligi natijasida qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda javobgarlikka tortilishi.

- Ish faoliyati davomida fuqarolarni jinoiy harakatlar hamda huquqbuzarliklar sodir etishga og‘dirish va undash, shuningdek, o‘z mansab vakolatini suistimol qilishga undovchi usullarni qo‘llashning qattiqan taqiqlanganligi;

- “Sirli mijoz” tadbirini amalga oshirish uchun haqiqiy “mijoz” ko‘rinishida xodimlar va boshqa shaxslar(sirli mijozlar)dan foydalanilishi mumkinligi;

- “Sirli mijoz” tadbirlari qonunchilikda belgilangan tartibda telefon qo‘ng‘iroqlari, elektron pochta orqali ham amalga oshirilishi mumkinligi inobatga olinsin.

4. Devonxona bo‘limi Z.Lotoxovaga ushbu buyruqni bir kunlik muddatda tarkibiy bo‘lim va bo‘limmalarga yetkazish vazifasi yuklatilsin.

5. Klinika bo‘lim va bo‘limmalar rahbarlari ushbu buyruq ijrosi bo‘yicha nazoratni hamda ishchi hizmatchilarga tegishli tushintirish ishlarini doimiy ravishda ta‘minlasin.

6. Mazkur buyruqning ijrosining nazorati korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo‘limi boshlig‘i Z.SH.Ortiqov zimmasiga yuklatilsin.

Bosh shifokor:



D.A. Rustamova